



O'ZBEKISTONDA AXBOROTLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Aripova Dilafruz

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
ORCID: 0009-0007-9629-374X
a.dilafruz.a1986@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida axborotlashtirish sohasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ularning iqtisodiy tizimga integratsiyasi, mamlakatning iqtisodiy o'sishi, samaradorlikning oshishi va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Axborotlashtirish, ayniqsa, davlat boshqaruvi, biznes va ta'lim sohalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy jarayonlarni yanada soddalashtirish va tezlashtirish imkonini yaratadi. Xususan, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, onlayn xizmatlar, hamda ma'lumotlar bazalari va sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi orqali resurslarni samarali boshqarish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirishga erishilmoqda. Shuningdek, axborotlashtirishning rivojlanishi ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada axborot texnologiyalarining iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, raqamli transformatsiya jarayonlari va ular bilan bog'liq iqtisodiy natijalarni o'rganishni taqozo etadi. U, shuningdek, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar va muammolarni tahlil etadi.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, elektron tijorat, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, iqtisodiy o'sish, ma'lumotlar bazasi.

АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИНФОРМАТИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Арипова Дилафруз

Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада ал-Хоразмий

Аннотация. В статье рассматривается растущая значимость сектора информатизации в экономике Узбекистана. Развитие информационных технологий и их интеграция в экономическую систему играют важную роль в обеспечении экономического роста страны, повышении эффективности и конкурентоспособности. Информатизация позволяет еще больше упростить и ускорить экономические процессы за счет внедрения современных технологий, особенно в сферах государственного управления, бизнеса и образования. В частности, цифровая экономика, электронная коммерция, онлайн-сервисы, а также использование баз данных и технологий искусственного интеллекта позволяют добиться эффективного управления ресурсами и оптимизации процессов производства и обслуживания. Развитие информатизации также оказывает влияние на улучшение деловой среды, создание новых рабочих мест и обеспечение экономической стабильности. В статье рассматривается интеграция информационных технологий в экономику, процессы цифровой трансформации и связанные с ними экономические результаты. В докладе также анализируются возможности и проблемы, возникающие при переходе Узбекистана к цифровой экономике.

Ключевые слова: информатизация, цифровая экономика, экономическая эффективность, электронная коммерция, информационные технологии, искусственный интеллект, цифровая трансформация, экономический рост, база данных.

ACTUAL ASPECTS OF INFORMATICS IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Aripova Dilafruz

*Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi*

Abstract. *The article discusses the growing importance of the informatization sector in the economy of Uzbekistan. The development of information technologies and their integration into the economic system play an important role in ensuring the country's economic growth, increasing efficiency and competitiveness. Informatization allows to further simplify and accelerate economic processes through the introduction of modern technologies, especially in the areas of public administration, business and education. In particular, the digital economy, e-commerce, online services, as well as the use of databases and artificial intelligence technologies allow to achieve effective resource management and optimize production and service processes. The development of informatization also affects the improvement of the business environment, the creation of new jobs and ensuring economic stability. The article discusses the integration of information technologies into the economy, digital transformation processes and related economic results. The report also analyzes the opportunities and challenges arising from the transition of Uzbekistan to a digital economy.*

Keywords: *informatization, digital economy, economic efficiency, e-commerce, information technology, artificial intelligence, digital transformation, economic growth, database.*

Kirish.

Axborot jamiyati texnologiyalari yangi iqtisodiyotni shakllantirmoqda. Siyosatchilar, ishbiarmonlar va olimlar xalqaro forumlarda uning parametrlari haqida bahslashmoqdalar. "Elektron biznes", "virtual hukumat", "raqamli texnologiyalar davlati" tushunchalari allaqachon kundalik hayotda qo'llanilmoqda. Yangi "ilg'or" texnologiyalarning paydo bo'lish va ularni joriy etish sur'ati muttasil oshib bormoqda. Bularning barchasi jahon iqtisodiyotining uzluksiz davom etadigan inqilob davriga kirganligidan dalolat beradi. Yangi g'oyalar bilan chiqqan, katta axborot oqimini boshqarishga tayyor, doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lgan kompaniyalar raqobatda g'olib chiqadi.

Yangi iqtisodiyot o'rnini tiklab bo'lmaydigan tabiiy resurslarning ortib borayotgan iste'moliga emas, balki bilimga asoslanadi. Bu esa shuni anglatadiki, moddiy boyliklar va an'anaviy resurslar emas, balki intellektual mulk, nou-xau har qanday korxonaning asosiy kapitaliga aylanadi. Eng katta foyda ixtirolar va innovatsiyalardan olinadi. Bundan tashqari, texnologik ishlanmalar, biznes jarayonlarini tashkil etish va mutlaqo yangi biznes g'oyalar xuddi shu darajada muhimdir.

Zamonaviy hayotimizda axborot texnologiyalari ijtimoiy xizmat ko'rsatishning barcha jabhalarida faoliyat yurituvchi barcha turdagi tashkilotlarni boshqarishda qo'llaniladi. Axborotni boshqarish texnologiyalarining eng ustun va aniq afzalliklari tijorat tashkilotlar amaliyotida paydo bo'la boshladi.

Adabiyotlar sharhi.

Axborotlashtirishning iqtisodiy samaradorligi va bozoridagi raqobatni tahlil qilish bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ularning asarlari mobil aloqa tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini baholash, raqobatning rivojlanishini tahlil qilish va


innovatsion texnologiyalarning ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Quyida mobil aloqa tizimlarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatni tahlil qilishga oid ba'zi muhim ilmiy ishlar va ularni olib borgan olimlar keltirilgan. **Kakkar va Guptaning** (2015) 2015-yilda *International Journal of Communications and Networks*, jurnalida chop etilgan **"Economic Analysis of Mobile Communication"** nomli maqolasida mobil aloqa tizimlarining iqtisodiy samaradorligini o'rganadi, ayniqsa, 3G va 4G texnologiyalarining iqtisodiy ta'sirini baholashga qaratilgan. Shuningdek, bozor raqobatini tahlil qiladi, mobil aloqa kompaniyalarining investitsiya qilishda duch kelgan qiyinchiliklari va ularning strategiyalari ko'rib chiqiladi. **Cavening** (2006) 2006 yilda *Telecommunications Policy*, jurnalida chop etilgan. **"The Economics of Mobile Telecommunications"** nomli asosida mobil aloqa bozoridagi raqobatni va unga ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillarni tahlil qiladi. Mobil aloqa kompaniyalarining monopolistik va raqobatli sharoitlarda qanday faoliyat yuritishini va foydalanuvchilar uchun eng yaxshi xizmatlarni qanday taklif etishini o'rganadi. **Beilockning** (2010) 2010 yilda *Journal of Development Economics* jurnalida chop etilgan, **"Telecommunications and Economic Development"** maqolasida mobil aloqa va umumiy telekommunikatsiya tizimlarining iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini tahlil qiladi. Beilock mamlakatlar va mintaqalardagi mobil aloqa infratuzilmasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Maxkamovning (2015) 2015 yilda chop etilgan "The current state of development of the mobile services market in Uzbekistan" nomli 2015 yilda *Marketing in Russia and abroad* jurnalida chop etilgan maqolasida O'zbekiston bozorida mobil aloqalarning o'rnini keng tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining oshishi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni olish mumkin. Bu esa o'z o'rnida xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan resurslar ulushining o'sishida o'z aksini topadi.

Jamiyat rivojlanib, ishlab chiqarish kuchlari kuchayib borar ekan, xizmat ko'rsatish sohasi ham o'zgarib bormoqda: ushbu sohada bandlik ko'paymoqda, mehnatning texnik jihozlari yaxshilanmoqda va zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi (Statistika Agentligi) ma'lumotlari ko'ra 2024-yil 1-oktabr holati bo'yicha, respublikada faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 466 442 taga yetgan. Xususan, xizmatlar sohasi kesimida 335 908 tani va respublikada faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 72,0 % ini tashkil etmoqda.



1-rasm. Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar (yillar kesimida, 2024-yil 1 oktyabr holatiga)

Shuningdek, respublikada xizmat taqdim etuvchi korxona va tashkilotlarning 80,5 foizni yoki 270 513 tasini kichik tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etmoqda.

Ta'kidlash lozimki, 2024-yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 42 524 tashkil etgan bo'lsa, bu umumiy sonining 65,9 % i ko'rsatib bermoqda.



2-rasm. Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yillar kesimida, 2024-yil 1 oktyabr holatiga)

Shu bilan bir qatorda, respublikada 2024-yilning 1-oktabriga qadar bo'lgan muddatda xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 40 530 nafarga yoki ular umumiy sonining 95,3 % iga yetganini ko'rish mumkin.

1- jadval

Hududlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil 1-oktabr holatiga)


Hududlar	Xizmatlar hajmi, mrd.so'mda		Ulushi %da	O'sish sur'ati %da
	2023 y.	2024 y.		
O'zbekiston Respublikasi	448 484,4	564 777,7	100	112,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15 543,7	19 647,1	3,5	111,2
Andijon	23 011,3	28 536,1	5,1	112,9
Buxoro	19 278,6	23 781,7	4,2	112,1
Jizzah	10 950,4	13 719,2	2,4	113,2
Qashqadaryo	23 669,4	29 334,0	5,2	110,3
Navoiy	11 276,4	13 802,1	2,4	111,2
Namangan	23 466,2	29 247,7	5,2	112,1
Samarqand	31 815,7	39 780,3	7,0	112,6
Surxondaryo	15 966,0	19 619,8	3,5	110,2
Sirdaryo	6 437,4	7 859,8	1,4	110,1
Toshkent	31233,3	38 838,4	6,9	112,6
Farg'ona	30 283,9	37 731,7	6,7	111,9
Xorazm	15 222,7	19 164,5	3,4	112,6
Toshkent Shahri	161 032,0	208611,5	36,9	117,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Mazkur xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning demografiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli hududlar kesimida xizmat ko'rsatish sohasi Statistika Agentligi tomonidan qilingan 2024 yilning yanvar-sentyabr oylari tahlili bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 36,9 %, ya'ni 208 611,5 mlrd so'mni tashkil etgan. 2023 yilga nisbatan ushbu hududning o'sish sur'ati 117,0 % ga yetgan. Mazkur ko'rsatgich bo'yicha Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7


859,8 mlrd so'mni yoki jami xizmatlar hajmining 1,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 110,1 % ga yetgan.

2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 313 805,5 mlrd so'mga teng bo'lib, bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 55,6 % ni, shu jumladan 35,6 % kichik korxona va mikrofirmalardan iboratdir. Hududlar orasida Toshkent shahrining xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik hajmidagi ulushi 26,8 % ga yetdi.



3-rasm. Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik hajmi va o'sishi (yillar kesimida, 2024-yil 1 oktyabr holatiga)

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas elementi bo'lib, uning barqarorligi, diversifikatsiyasi va jahon miqyosida raqobat bardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, xizmat ko'rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining salmoqli qismini qamrab oladi.



4-rasm. Xizmatlarning YaIMdagi ulushi (yillar kesimida, 2024-yil 1 oktyabr holatiga)

2024 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmat larning YaIMdagi ulushi 47,2 % ni tashkil etdi. 2020 yilning mos davriga nisbatan bu ko'rsatkich 4,7 f.p.ga oshdi.

Xizmatlar bu – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ning holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar oldi-sotdi ob'ekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagigicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 564 777,7 mlrd so'mga yetdi. 2023 yilning (112,1 %) o'sish sur'ati 112,8 % ni tashkil etdi, hajmi esa 116 293,3 mlrd so'mga oshdi.

2024 yilning hisobot davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili yashash va ovqatlanish xizmatlari (26 067,8 mlrd so'mga), transport xizmatlari (21 192,9 mlrd so'mga), moliyaviy xizmatlar (20 545,0 mlrd so'mga), savdo xizmatlari (16 692,8 mlrd so'mga) va aloqa xizmatlari (2023 yil yanvar-sentyabriga nisbatan 10 931,7 mlrd so'mga) o'sishi bilan izohlanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya va turizm kabi segmentlarga katta investitsiyalarni jalb qilmoqda. O'z navbatida, yangi raqamli xizmatlar va AT platformalarining joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirishga yordam beradi.

2- jadval


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2024-yil 1oktabr holatiga)

Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar xajmi, mlrd so'mda		Ulushi % ga	O'sish su'rati % da
	2023 y	2024y		
Xarajatlar-jami	448484,4	564777,7	100,0	112,8
<i>Shundan asosiy turlari bo'yicha</i>				
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	28022,1	38953,8	6,9	123,4
Moliyaviy xizmatlari	77063,4	97608,4	17,3	120,3
Transport xizmatlari	75899,0	97091,9	17,2	108,6
Shu jumladan:avtotransport xizmatlari	36364,0	46370,2	8,2	111,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	93447,4	119515,2	21,2	110,4
Savdo xizmatlari	89673,8	106366,6	18,8	111,2
Ko'chmas mulk bilan bog'lanish	12037,8	14844,0	2,6	113,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	17163,1	21037,1	3,7	115,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9328,4	11315,5	2,0	108,6
Ijara xizmatlari	5435,4	6821,4	1,2	104,8
Kompyutirlar va maishiy tavarlarni tamirlash bo'yicha xizmatlar	6843,9	8498,1	1,5	111,4
Shaxsiy xizmatlar	8778,1	11133,4	2,0	108,7
Memorchilik,muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va taxlil sohasidagi xizmatlar	5846,1	7364,7	1,3	105,1
Boshqa xizmatlar	18945,9	24227,6	4,3	109,4

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning 20,3 % ga o'sishi (ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi 3,5 punkt o'sishiga qo'shgan hissasi), savdo xizmatlari – 11,2%ga (2,2 punkt o'sishiga qo'shgan hissasi), yashash va ovqatlanish xizmatlari – 10,4 % ga (2,2 punkt o'sishiga qo'shgan hissasi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 23,4 % ga (1,4 punkt o'sishiga qo'shgan hissasi), transport xizmatlari – 8,6 % ga (1,4 punkt o'sishiga qo'shgan hissasi), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 15,8 % ga (0,6 punkt o'sishiga qo'shgan hissasi) o'sishi bilan bog'liq.

2024 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 21,2 % ni, savdo xizmatlari – 18,8 %, moliyaviy xizmatlar – 17,3 % ni, transport xizmatlari – 17,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 6,9 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa – 3,7 % ni tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.



**5-rasm. Raqamlashtirish xizmatlari hajmi va o'sishi
(yillar kesimida, 2024-yil 1 oktyabr holatiga)**

2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 38 953,8 mlrd so'm darajasida qayd etildi va 2023 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,4 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024 yilning yanvar-sentyabr oylari dagi ulushi 38,6 % ni tashkil etdi.



**6-rasm. Hududlarda raqamlashtirish xizmatlari hajmi va o'sishi
(yillar kesimida, 2024-yil 1 oktyabr holatiga)**

2024-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, "Aloqa va axborot" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni 10 432 birlikka yetdi, shundan 9 998 birligi kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi.

2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida muqobil to'plamning umumiy tarkibida AKT xizmatlari 89,7% ni tashkil etdi. Ushbu sektorda telekommunikatsiya xizmatlari 41,6 % ga ustunlik qildi. Joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida dasturiy ta'minotni nashr qilish xizmatlarining ulushi kamroq bo'ldi. Ushbu xizmatlar 3,7 % ni tashkil etdi.

3-jadval

OAB, Kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami

Xizmat turlarining nomi	Xajmi, mlrd so'mda	Umumiy xajmdagi ulushi % da
JAMI	40285,3	100,0
<i>Shu jumladan;</i>		
AKT xizmatlari sektori	36122,2	89,7
<i>Shu jumladan</i>		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	2235,4	6,2
Telekommunikatsiya	15028,4	41,6
Kompuyutir dasturlashtirish, maslaxat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	15011,8	41,5
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; Web portallar	2515,1	7,0
Kompuyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1331,5	3,7
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	4163,1	10,3

Muqobil to'plamning umumiy hajmida kontent va OAVning ulushi 10,3 % ni tashkil etdi. Uning tarkibida dasturlarni tuzish va teleradioeshittirish bilan bog'liq xizmatlarning ulushi 54,2 % ga, kino – videofilmlar va televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar 7,5 % ga yetdi.

Xulosa va takliflar.

Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya va turizm kabi segmentlarga katta investitsiyalarni jalb qilmoqda. O'z navbatida, yangi raqamli xizmatlar va AT platformalarining joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirishga yordam beradi.

Bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar oldi-sotdi ob'ekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagigicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi oshgan.

2024 yilning hisobot davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili yashash va ovqatlanish xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari va aloqa xizmatlari o'sishi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Beilock J. M. E. (2010) "Telecommunications and Economic Development" *Journal of Development Economics*.

Cave M. E., (2006) "The Economics of Mobile Telecommunications" *Telecommunications Policy*.

Kakkar K., Gupta P. K. (2015) "Economic Analysis of Mobile Communication" *International Journal of Communications and Networks*.

Maxkamov, B. Sh. (2015). *The current state of development of the mobile services market in Uzbekistan. Marketing in Russia and abroad*, (6), 85-88.